XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-noyabr VII-15-134-4-68-K/25 Yakkabog’ tumani

Yakkabog‘ tumanida 2026-yilda melioratsiya ob’ektlarini tizimli ta’mirlash-tiklash ishlari loyihalarini belgilangan tartibda shakllantirish va amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4801-sonli qarorining 7-bandiga muvofiq 2021-yildan boshlab irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va tizimli ta’mirlash-tiklash bo’yicha ustuvor loyihalarni tanlash maqsadida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo’ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida PF-6024-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2025-yil 30-iyundagi “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish ishlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 401-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4801-sonli qarorining 7-bandiga muvofiq 2021-yildan boshlab irrigatsiya va melioratsiya ob’ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlash-tiklash bo’yicha ustuvor loyihalarni tanlash maqsadida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo’ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida PF-6024-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2025 yil 30-iyundagi “Sug'oriladigan yerlarning meliorativ

holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish ishlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 401-sonli qarori **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari U.Nurmanovning tumanda 2026-yilda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ustuvor loyihalarni tanlash to‘g‘risidagi axboroti **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

3. 2026-yilda tumandagi meliorativ ob’ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda tizimli ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha ob’ektlarni tanlash, meliorativ ob’ektlarda tadbirlarni amalga oshirilishi, shuningdek ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni nazorat qilib boruvchi tuman Ishchi guruhi tarkibi **1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4. 2026-yilda meliorativ ob’ektlarni tizimli ta’mirlash-tiklash bo‘yicha ustuvor loyihalarning dastlabki manzilli ro‘yxati **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

5. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (U.Nurmanov) qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (Sh.Mustafoyev), tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi boshlig‘i (M.Abrayev), tuman Fermerlar kengashi raisi (S.Ashurov), tuman Meliorativ uchastkasi boshlig‘i (A.Tilovov), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va fermer xo‘jaliklari rahbarlari bilan birgalikda:

meliorativ ob’ektlarni tizimli ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarning mexanizatorlari uchun zarur shart sharoitlarni yaratish, bajariladigan ishlarning sifatini nazorat qilish va belgilangan tartibda qabul qilishda faol ishtirok etsinlar;

tizimli ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilgan meliorativ ob’ektlar (kollektor, yopiq-yotiq drenaj, gidropost, quvurli o’tish, akveduk-dyuker, kuzatuv quduq, va dayver) inshoot hamda qurilmalarning qirg’oqbuyi mintaqa maydonlariga, yon atroflariga har xil chiqindi va hokozolar tashlanishini oldini olish kollektor-drenaj tarmoqlari va inshootini ko’z qorachig’idek asrab avaylash bo’yicha maxalla fuqarolar yig’ini aholisi, fermerlar va klaster korxonalari rahbarlariga tushuntirishlar va ko’rsatmalar bersin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Yakkabog‘ tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Ashurov va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari U.Nurmanovlar zimmallariga yuklatilsin.

Kengash raisi

G‘IYOSOV ABDINABI KAMOLOVICH

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani
Kengashining
2025-yil 29-noyabrdagi
VII-15-134-4-68-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yilda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha TUMAN ISHCHI GURUHI TARKIBI

T.r	Ismi va sharifi	Lavozimi
1	U.Nurmanov	Yakkabog‘ tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, **Ishchi guruh rahbari**
Ishchi guruh a‘zolari		
2	M.Abrayev	Yakkabog‘ tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi direktori
3	Sh.Mustafoyev	Yakkabog‘ tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘lim boshlig‘i
4	S.Ashurov	Yakkabog‘ tuman fermerlar kengashi raisi
5	A.Tilovov	Yakkabog‘ meliorativ uchastkasi boshlig‘i
6	Sh.Yoqubov	Nasos stansiyalari, energetika boshqarmasining tuman uchastka boshlig‘i
7	A.Sohibov	“Qashqadaryo Maxsussuvloyiha” MChJ direktori

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani Kengashining
2025-yil 29-noyabrdagi
VII-15-134-4-68-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Yakkabog‘ tumanida 2026-yilda melioratsiya obektlarini tizimli ta’mirlash-tiklash bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalarning
MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Obekt nomi va manzili	Loyihani amalga oshirish muddati	O‘lchov birligi	Loyiha quvvati*	Shundan, 2026-yilda foydalanishga topshiriladigan quvvat	Obektning umumiy qiymati, mln.so‘m *	01.01.2026-yilga qoldiq qiymati mln.so‘m *	2026-yil uchun limit*	Meliorativ holati yaxshilanadigan maydon, gektar	shu jumladan			Oxirgi marta meliorativ tadbir o‘tkazilgan yil
										o‘rta va kuchli sho‘rlangan maydonlarning kamayishi	sizot suvlar sathi 2 metrgacha bo‘lgan maydonlarning kamayishi	meliorativ barqarorligi saqlanadigan maydonlar	
1	*2*	*3*	4	5	6	7	8	9	10	11	12	**13**	14
1	Yakkabog‘ tumani "Sarisuv" kollektori tizimidagi kollektorlarni tizimli ta’mirlash-tiklash (2-bosqich)	2026 y	koll, km	57,0	57,0	2315,8	2315,8	2200,0	1450		350	1100	2020
			YOYOD, km										
			GTI, dona										
			quvurli o‘tish, dona	12	12								
			kuz. quduq, dona.										

			akveduk-dyuker	6	6								
			dayver dona										